

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 23 403,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,1 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>19 583,9</b>	<b>23 403,3</b>	<b>107,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 140,2	22 959,8	107,0
mahsulotlarga sof soliqlar	443,7	443,5	104,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>19 140,2</b>	<b>22 959,8</b>	<b>107,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>6 471,9</b>	<b>6 962,3</b>	<b>103,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>4 490,9</b>	<b>5 815,2</b>	<b>109,3</b>
sanoat	3 114,6	4 280,6	109,8
qurilish	1 376,3	1 534,6	108,1
<b>xizmatlar</b>	<b>8 177,4</b>	<b>10 182,3</b>	<b>108,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 595,8	1 914,6	111,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 099,6	1 434,4	118,3
boshqa xizmat tarmoqlari	5 482,0	6 833,3	106,1



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 597,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,6 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,7	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2,3	1,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>33,8</b>	<b>30,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>23,5</b>	<b>25,3</b>
sanoat	16,3	18,6
qurilish	7,2	6,7
<b>xizmatlar</b>	<b>42,7</b>	<b>44,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,3	8,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,7	6,2
boshqa xizmat tarmoqlari	28,7	29,9




2024-yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 30,3 % ni, sanoat tarmog‘i 18,6 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 44,4 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2023- yilda – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,3 %), sanoatda – 109,8 % (18,6 %), qurilishda – 108,1 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 108,8 % ni (44,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,5 % (8,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,3 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,1 % dan (29,9 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



5,7 %

YAHM

7,0 %



5,1 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

3,3 %



7,2 %

Sanoat

9,8 %



2,2 %

Qurilish

8,1 %



6,0 %


Xizmatlar

8,8 %



2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 111,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 125,2 % va sanoatda – xizmatlarda, 114,5 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 15 614,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 13 314,6 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 68,0% ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 69,6%) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining koʻpayishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

13 314,6

69,6 %

2024- yil

15 614,3

68,0 %

